
Xalq farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar

Xabar berib o'tganimizdek, tuman hokimining mahallalaridagi yordamchilari bugungi kunda aholining chinakam ko'makchisiga aylanib bormoqda.

Rishton tumani mahallabay ishlash markazi direktori va Respublikadan birlashtirilgan vakillar tomonidan Jalaer, Chek-Jalaer va Yangi avlod MFY hokim yordamchilarining bugungi kunda olib borayotgan ishlarini ko'zdan kechirildi.

O'rganishlar jarayonida hudud hokim yordamchilari tomonidan aholiga imtiyozli kredit asosida olib berilgan chorvalar holati, qurib berilgan issiqxonalardan samarali foydalanish, ochiq byudjet evaziga mahallada elektr taminotini yaxshilash hamda uzoq muddatga auktsion orqali olingan yerlardan unumli foydalanayotganliklari ma'lum bo'ldi.

2022-08-09 17:49:47